

## M. TOPVOLDIEVNI XOTIRLAB...

Belarus Respublikasi vakillari tumanimizda bo'ldi

Bugun Belarus Respublikasi Mogilyov viloyati Krugloe tumani delegatsiyasi Rishton tumanida bo'lib, Ikkinci jahon urushi Qahramoni Mamadali Topvoldiev muzeyida bo'lishdi va oila a'zolari bilan uchrashishdi.

Delegatsiya a'zolari - Viia Gapaeva -"Kruglyansk tuman tarix-o'lakashunoslik muzeyi" direktori, Anna Mesheryakova - Belarus Respublikasi vakili, Abdulatif Rahimov -O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasining "Shon-sharaf muzeyi" yetakchi mutaxassis, To'lqin Zohidov -tarix fanlari kandidatlarni dastlab tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov kutib oldi.

Shundan so'ng, delegatsiya vakillari - Ikkinci jahon urushi Qahramoni Mamadali Topvoldiev xonardonida bo'lishib, uning farzandlari, oila a'zolari bilan bir piyola choy ustida suhbat olib borishdi. Deletsiya vakillari tomonidan Ikkinci Jahon urushi qahramoni qabrini ziyorat qilindi va gulchambarlar qo'yilib, hurmat bajo keltirildi. Shuningdek, Zohidon MFY hududida joylashgan Mamadali Topvoldiev memorial muzeyida bo'lishdi.

Uchrashuvlarda rishtonlik partizan-Qahramon, "Kazbek" laqabi bilan dovrug' qozongan M.Topivoldievning Ikkinci jahon urushida ko'rsatgan qahramonliklari, belarus o'rmonlarida partizanlar harakatiga rahbarlik qilib, misli ko'rilmagan qo'poruvchilik harakatlari, bosqinchilar ustidan qozonilgan g'alabaga salmoqli hissa qo'shgan razvedkachi jangchining urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligi sohasidagi xizmatlari xususidagi gapirib o'tildi.

2024-08-08 14:31:46